

FAROBIY VA ZAMONAVIY DEMOKRATIYA: ADOLATNING IKKI QIRRASI

Abduvaitov Abdusait Murod O‘g‘li

*TDYU, “Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti
2-kurs talabasi*

*e-mail: abduvaitovabdusait@gmail.com
+998770969566*

ANNOTATSIYA

Maqolada Forobiyning adolat konsepsiysi zamonaviy demokratiya prinsiplari bilan qiyosiy jihatdan o‘rganilgan. Forobiyning adolat haqidagi qarashlari kuch, kelishuv va ittifoq tamoyillari orqali tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-siyosiy tizimlarning shakllanishidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Zamonaviy demokratiya esa adolatni qonun ustuvorligi, inson huquqlari, erkinlik va tenglik mezonlari asosida ta’riflaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqiy hujjatlar misolida adolatning milliy va xalqaro talqinlari yoritilgan. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, Forobiyning “kuch va kelishuv muvozanati” haqidagi g‘oyalari bugungi demokratik jamiyatlarda hokimiyatlar bo‘linishi va institutsional nazorat prinsiplari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu tariqa, adolat jamiyat barqarorligi va demokratiya taraqqiyoti uchun poydevoriy qadriyat sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Forobiy, adolat, demokratiya, kuch, kelishuv, inson huquqlari, qonun ustuvorligi.

АННОТАЦИЯ

В статье проведён сравнительный анализ концепции справедливости у Фараби и принципов современной демократии. Рассматриваются три аспекта справедливости в трудах мыслителя — сила, согласие и союз, а также их значение в формировании общественно-политических систем. Современная демократия трактует справедливость через верховенство закона, права человека, свободу и равенство. Особое внимание удалено сопоставлению идей Фараби с положениями Конституции Республики Узбекистан и международных правовых актов. Сделан вывод, что концепция «баланса силы и согласия» у Фараби коррелирует с принципами разделения властей и институционального контроля в современном демократическом государстве. Следовательно, справедливость определяется как фундаментальное условие стабильности общества и развития демократии.

Ключевые слова: Фараби, справедливость, демократия, сила, согласие, права человека, верховенство закона.

ABSTRACT

The article presents a comparative analysis of Al-Farabi’s concept of justice and the principles of modern democracy. Al-Farabi interprets justice through three dimensions —

power, consensus, and alliance — which play a significant role in the formation of socio-political structures. Modern democracy, in contrast, defines justice in terms of the rule of law, human rights, liberty, and equality. The study further examines justice within the framework of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and international legal instruments. The findings indicate that Al-Farabi's notion of the "balance between power and consensus" correlates with the principles of separation of powers and institutional checks in democratic governance. Thus, justice is conceptualized as a fundamental condition for societal stability and the development of democracy.

Keywords: Al-Farabi, justice, democracy, power, consensus, human rights, rule of law.

Adolat — insoniyat tafakkuri va huquqiy ongining eng muhim, eng qadimiy hamda eng dolzarb tushunchalaridan biri sifatida tarixning barcha davrlarida izlanilgan, turlicha talqin qilingan va chuqur bahslarga sabab bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Qadim Sharq donishmandlari merosida, G‘arb falsafasining buyuk allomalari asarlarida hamda zamonaviy demokratik tamoyillar nazariyasidaadolat g‘oyasi o‘ziga xos ravishda yoritilib kelgan. Chunki adolat — faqat axloqiy fazilat emas, balki ijtimoiy tartibotning asosi, davlat boshqaruvining barqarorligini ta’minlovchi poydevor va inson erkinliklari hamda huquqlarining kafolatidir.

Insoniyat qanchalik taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tmash, texnologik va iqtisodiy jihatdan qay darajada rivojlanmasin, adolatga bo‘lgan ehtiyoj, unga intilish hamon o‘z mohiyatini yo‘qotmagan. Zero, adolat mavjud bo‘lmagan jamiyatda na ijtimoiy barqarorlik, na huquqiy ishonch, na chinakam demokratiya qaror topa oladi. Shu bois adolat — jamiyatning hayotiy mezoni, davlatning huquqiy asosini mustahkamlaydigan tamoyil va insonning tabiiy hamda ajralmas huquqlarini ta’minlovchi oliy qadriyatdir.

Adolat tushunchasi, huquqiy nuqtayi nazardan, inson huquqlarining umumiyligida, tenglik va erkinlik prinsiplarida, davlat hokimiysi vakolatlarini muvozanatlash hamda fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishda o‘z aksini topadi. Shu ma’noda, adolat — nafaqat huquqiy kategoriya, balki jamiyatning axloqiy-ma’naviy dunyosini belgilovchi, davlat va xalqning kelajak taraqqiyot yo‘lini chizuvchi, insoniyatni yuksaklikka chorlovchi abadiy g‘oyadir.

Forobiy o‘z asarlarida adolatni ikki qirrada tasvirlaydi. Bir qarashda, adolat kuchning natijasidir: g‘olib g‘urur bilan o‘zini adolatli deb biladi, mag‘lub esa bo‘ysunishga majbur bo‘ladi. Bu hayotiy haqiqat insoniyat tarixida urushlar, istilolar, zulmlar misolida qayta-qayta tasdiqlangan. Biroq Forobiy tafakkurining ikkinchi qirrasi yanada chuqurroq va insonparvarroqdir: adolat — bu kelishuv, hamkorlik, manfaatlar muvozanati va o‘zaro hurmat orqali barqarorlikni ta’minalash vositasidir. Demak, adolat faqat kuchning emas, balki kelishuvning ham mezondir.

Bugungi zamон esa adolatga yanada kengroq ma’no yuklaydi. Demokratiya sharoitida adolat — qonun ustuvorligi, inson huquqlari, erkinlik va tenglik bilan belgilanadi. Endi u kuchlilarning ixtiyorida emas, balki konstitutsiya va huquqiy institutlar himoyasida turadi. Har bir fuqaroning qadr-qimmati davlat tomonidan kafolatlanadi, adolat esa shu kafolatlarning yuragi sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy global jarayonlarda — siyosiy raqobatlar, iqtisodiy tengsizlik, migratsiya va inson huquqlari inqirozлari fonida — adolat masalasi yanada keskinlashmoqda. Shu bois, Forobiy merosi va demokratiya prinsiplari o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni tahlil etish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy zaruratga ham ega. Zero, adolat kuchlilar qo‘lidagi qurol emas, balki insoniyatni birlashtiruvchi, jamiyatni barqarorlashtiruvchi va davlatni mustahkamlaydigan eng yuksak qadriyatdir.

Adolat — Forobiy nazarida insoniyat jamiyatining hayotiy tomiri, siyosiy barqarorlikning tayanchi va ijtimoiy munosabatlarning bosh mezonidir. Biroq u adolatni faqatgina yuksak ma’naviy tamoyil sifatida emas, balki real hayotiy kurashlar, manfaatlar to‘qashuvni va guruhlararo muvozanat bilan bog‘liq holda talqin qiladi.

1. Adolatni kuch va g‘alaba bilan bog‘lash

Forobiy tasvirlagan jamiyatlarda adolat ko‘pincha kuchli tomonning qo‘lida bo‘ladi. G‘olib guruh o‘zini adolatli deb biladi, chunki u ustunlikni qo‘lga kiritgan. Mag‘lub esa bo‘ysunishga, hatto qullikka mahkum etiladi. Tarixning ko‘plab sahifalari — istilolar, urushlar, mustamlakachilik davrlari — shuni ko‘rsatadiki, kuchning mezoniga asoslangan “adolat” aslida kuchlilarning hukmronligini oqlash vositasiga aylanib kelgan. Bu holat, Forobiy fikricha, inson tabiatidan kelib chiqadigan o‘z manfaatini ko‘zlash instinkti bilan izohlanadi.

2. Tenglik va kelishuv asosida adolat tushunchasi

Shu bilan birga, Forobiy adolatning ikkinchi, yanada insonparvar va huquqiy qirrasini ham ko‘rsatadi. Guruhlar o‘rtasidagi uzoq davom etuvchi raqobat ba’zan kuch muvozanatiga olib keladi. Ana shunday vaziyatlarda tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirib, kelishuvga erishadilar. Savdo-sotiqla halollik, moliyaviy munosabatlarda adolatlilik, zulm va zarar yetkazmaslik — Forobiy ta’kidlaganidek, adolatning tenglikka asoslangan qirrasidir. Bu kelishuv jamiyatda tinchlik, o‘zaro hurmat va barqarorlikni ta’minalashga xizmat qiladi.

3. Guruhlararo raqobat va ittifoqlar misolida adolat

Forobiy tasvirlagan yana bir jihat shuki, adolat ko‘pincha guruhlararo ittifoqlar orqali namoyon bo‘ladi. Bir guruh yolg‘iz o‘zi maqsadiga erisha olmasa, kechagi raqibi bilan hamkorlikka kirishadi. Ular umumiylar yo‘lida ittifoq tuzadi va vaqt o‘tishi bilan bu ittifoqni tabiiy va adolatli deb biladigan yangi avlod yetishib chiqadi. Demak, adolat ba’zan kuchning natijasi, ba’zan esa hamkorlikning mevasi sifatida shakllanadi.

Forobiy qarashlarida adolatning ushbu uch qirrasi — **kuch, kelishuv va ittifoq** — aslida jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimlari shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

Kuchlilar adolatni o‘zining g‘alabasida ko‘rsa, xalqaro huquqiy tajriba kelishuv va tenglik tamoyillari orqali adolatni ta’minlashga intiladi. Bu qarash bugungi zamonaviy demokratiya uchun ham muhim saboq bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy demokratiya tushunchasining markazida, eng avvalo, inson huquqlari va tenglik tamoyillari turadi. Chunki har qanday demokratik jamiyatning maqsadi – fuqaroning sha’ni, erkinligi va huquqini kafolatlashdir. Inson huquqlari umumiy huquqiy qadriyat sifatida nafaqat milliy konstitutsiyalarda, balki xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Tenglik tamoyili esa, demokratik tuzumning asosiy ustunlaridan biri sifatida, ijtimoiy tabaqalanish yoki siyosiy mavqega qaramay, har bir insonning huquqiy jihatdan tengligini ta’minlaydi.

Adolatning ikkinchi muhim qirrasini ijtimoiy adolat tashkil etadi. Ta’lim, sog‘liqi saqlash, iqtisodiy imkoniyatlar va boshqa sohalarda adolatli sharoit yaratish – jamiyat taraqqiyotining zaruriy omili hisoblanadi. Bunday adolat nafaqat insonning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham xizmat qiladi. Ijtimoiy adolatni ta’minlamagan demokratiya esa faqat tashqi shaklga ega bo‘lib, ichki mazmunini yo‘qotadi. Shu bois demokratik davlatlar ijtimoiy xizmatlarning hamma uchun ochiqligi va adolatli taqsimotini o‘z siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

Bundan tashqari, siyosiy adolat ham zamonaviy demokratiyaning ajralmas qismi sanaladi. Bu, eng avvalo, erkin va adolatli saylovlar, qonun ustuvorligi hamda korrupsiyaga qarshi samarali kurashni o‘z ichiga oladi. Saylovlarning erkin va shaffof o‘tishi xalq irodasini ifodalashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Qonun ustuvorligi esa har bir fuqaro, mansabdor yoki davlat rahbarining birdek qonun oldida javobgar bo‘lishini ta’minlaydi. Korrupsiyaga qarshi kurash esa adolatning siyosiy asosini mustahkamlab, davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchni kuchaytiradi.

Forobiyning nazarida **adolat** jamiyat barqarorligining eng muhim mezoni sifatida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, jamiyat faqatgina kuch va zo‘ravonlik vositalari bilan emas, balki **kelishuv, hamkorlik va umumi manfaatlar** asosida shakllanishi lozim. Forobiylar ta’kidlaganidek, siyosiy hokimiyatning mohiyati faqat kuch ishlatalishda emas, balki **aqidrok, ijtimoiy murosa va birdamlik** tamoyillarida mujassam bo‘lmog‘i darkor.

Zamonaviy demokratiyada esa adolatning poydevori **qonun** bilan belgilanadi. Inson huquqlari, tenglik, erkin saylovlar va qonun ustuvorligi kabi prinsiplarga alohida ahamiyat beriladi. Shu bilan birga, demokratiya kuch omilidan butunlay xoli emas: siyosiy kuchlar muvozanati, xalqaro geosiyosiy ta’sirlar hamda ichki siyosiy dinamikalar adolatning amaliy ifodasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan Forobiyning “**kuch va kelishuv muvozanati**” haqidagi qarashlari zamonaviy demokratiyaning “**hokimiyatlar bo‘linishi**” va “**institutsional nazorat**” prinsiplari bilan mushtarakadir. Har ikkala yondashuvda ham adolat faqat qonun yoki kuch orqali emas, balki **ijtimoiy kelishuv va umumi manfaatlarni hisobga olish** orqali qaror topadi.

Mazkur fikrlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **14-moddasi** mazmuni bilan bevosita uyg‘unlashadi. Unda davlat o‘z faoliyatini **qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari** asosida amalga oshirishi belgilangan. Bu norma Forobiyning “**fazilatli shahar**” konsepsiysi bilan uyg‘un bo‘lib, davlatning bosh maqsadi inson farovonligini ta’minlashdan iborat ekanini ko‘rsatadi.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan esa ushbu tamoyillar **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi** (1948 yil) va **Fuqarolik hamda siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt** (1966 yil) kabi hujjatlarda mustahkamlangan. Mazkur xalqaro huquqiy manbalar Forobiyning ijtimoiy birdamlik va kelishuvga asoslangan adolat haqidagi g‘oyalariga yaqin bo‘lib, demokratiyaning **xalqaro andozalarini** yanada mustahkamlaydi. Shu tariqa, Forobiy falsafasi, milliy konstitutsiyaviy normalar va xalqaro huquqning asosiy tamoyillari o‘zaro uyg‘unlikda **adalatni barqaror jamiyatning bosh tayanchi sifatida** e’tirof etadi.

REFERENCES:

1. Фозил одамлар шахри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодик Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.
2. Germann, Nadja, "al-Farabi's Philosophy of Society and Religion", *The Stanford Encyclopedia of Philosophy* (Spring 2021 Edition), Edward N. Zalta (ed.), URL = <<https://plato.stanford.edu/archives/spr2021/entries/al-farabi-soc-rel/>>.
3. Al-Farabi's Philosophy of Society and Religion -- 2016: germann-n:2016a (Germann, Nadja)
4. Walzer, Richard. “Aspects of Islamic Political Thought: Al-Fārābī and Ibn Xaldūn.” *Oriens*, vol. 16, 1963, pp. 40–60. JSTOR, <https://doi.org/10.2307/1580252>. Accessed 29 Aug. 2025.
5. Nicky Lafeka Mellanti, Ngatmin Abbas, & Amel saib. (2025). A Study on the Thought of Al Farabi and Intellectual Legacy. *Journal of World Thinkers*, 1(02), 179–188. Retrieved from <https://journal.walideminstitute.com/index.php/jwt/article/view/186>